TURIZM SOHASIDA DAVLAT TILI VA CHET TILLARINING MUTANOSIBLIGI

Mirzaliyeva Malikaxon Shuxratjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
Xorijiy til va adabiyot fakulteti
Ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi ,
1- kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23970274

Annotasiya : Ushbu maqolada turizm sohasini rivojlantirishda davlat tili va chet tillarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Bugungi kunda turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biriga aylanib borayotgan bir davrda, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy merosimiz va madaniyatimizni dunyoga targ'ib etishda davlat tilining o'rni beqiyos ekanligi asoslab berilgan.Shu bilan birga, xalqaro turizm bozoriga integratsiyalashuv, xorijiy mehmonlarga sifatli xizmat ko'rsatish va global kommunikatsiyani yo'lga qo'yishda chet tillarini, xususan ingliz, rus, xitoy, arab va boshqa tillarni bilish zarurati ham ilmiy jihatdan yoritilgan.
Kalit so‘zlar : turizm, davlat tili, chet tili, mutanosiblik, milliy o'zlik, turistik xizmat, kommunikatsiya, madaniy meros.

Annotation : This article analyzes the issues of ensuring a balance between the state language and foreign languages in the development of the tourism sector. At a time when tourism is becoming one of the strategic sectors of our country's economy, the article substantiates the incomparable role of the state language in promoting our national values, historical heritage and culture to the world.At the same time, the need to know foreign languages, particularly English, Russian, Chinese, Arabic and other languages, for integration into the international tourism market, providing quality service to foreign guests and establishing global communication is also scientifically highlighted.
Key words : tourism, state language, foreign language, balance, national identity, tourist service, communication, cultural heritage

АННОТАЦИЯ : В данной статье анализируются вопросы обеспечения баланса между государственным языком и иностранными языками в развитии сферы туризма. В то время, когда туризм становится одной из стратегических отраслей экономики нашей страны, в статье обосновывается несравнимая роль государственного языка в продвижении наших национальных ценностей, исторического наследия и культуры в мире. В то же время научно освещается необходимость знания иностранных языков, в частности английского, русского, китайского, арабского и других языков, для интеграции в международный туристический рынок, качественного обслуживания иностранных гостей и налаживания глобальной коммуникации.
Ключевые слова : туризм, государственный язык, иностранный язык, баланс, национальная идентичность, туристический сервис, коммуникация, культурное наследие.

KIRISH : Bugungi kunda turizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki xalqlar o'rtasida madaniy muloqotni ta'minlovchi, milliy qadriyatlarni dunyoga tanitishning eng samarali vositalaridan biriga aylandi. O'zbekistonning boy tarixiy merosi, betakror madaniy yodgorliklari va mehmondo'st xalqi jahon turizm bozorida katta qiziqish uyg'otmoqda. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir sharoitda, sohada til masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Har bir millat o'zini avvalo tili bilan namoyon etadi. Turistik obyektlarda, mehmonxonalarda, yo'l ko'rsatgichlarda davlat tilining mavqeyini saqlab qolish - bu milliy o'zligimizni saqlash demakdir.Shu bilan birga, turizm xalqaro soha. Xorijiy mehmon bilan uning tilida so'zlasha olish - sifatli xizmatning asosiy mezoni. Shu boisdan ham davlat tili va chet tillari o'rtasidagi oqilona mutanosiblikni ta'minlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.Ushbu maqolada ana shu mutanosiblikni qanday ta'minlash, davlat tiliga putur yetkazmagan holda chet tillaridan samarali foydalanish yo'llari tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI : Ushbu maqolani tayyorlashda quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi: Qiyosiy-tahliliy metod: Turizmi rivojlangan davlatlar - Turkiya, Fransiya, Yaponiya va BAA tajribasi o'rganilib, ularda davlat tili va chet tillarining turizm sohasida qo'llanilishi bo'yicha qonunchilik va amaliyot O'zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi.Sotsiologik so'rov metodi: Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirish maqsadida 2024-2025 yillar davomida Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga tashrif buyurgan 30 nafar xorijiy sayyoh hamda 20 nafar gid va mehmonxona xodimlari o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkazildi.Kuzatuv va monitoring metodi:12 ta asosiy turistik obyekt (Registon majmuasi, Buxoro Arki, Ichan-Qal'a va boshqalar) dagi axborot taxtalari, yo'l ko'rsatgichlar, bukletlar va elektron ma'lumot berish vositalarida tillarning joylashish tartibi va sifati joyida borib kuzatildi.Statistik ma'lumotlar tahlili:O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, Statistika agentligining 2023-2025 yillardagi turizm sohasiga oid rasmiy hisobotlari va chet tillarini bilish darajasiga oid ma'lumotlar tahlil qilindi.

Ushbu tadqiqot davomida O'zbekistondagi 12 ta turistik obyekt (Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlaridagi) va 30 nafar xorijiy sayyoh o'rtasida so'rovnoma va kuzatuv ishlari olib borildi. Til ustuvorligi bo'yicha natija:O'rganilgan obyektlarning 58% da axborot lavhalari avvalo rus yoki ingliz tilida, 42% da esa davlat tilida berilganligi aniqlandi. Bu holat "Reklama va turistik axborot to'g'risida"gi qonun talablariga to'liq javob bermasligini ko'rsatdi.Xorijiy sayyohlar fikri: So'rovda qatnashgan sayyohlarning 84% i gidlarning chet tili (ayniqsa ingliz tili) darajasidan qoniqish hosil qilgan bo'lsa, 76% i davlat tilidagi yozuvlarning mavjudligini "milliy kolorit va o'ziga xoslik belgisi" sifatida ijobiy baholadi. Mutaxassislar kompetensiyasi: Gid va mehmonxona xodimlarining 65% i chet tilini o'rtacha darajada bilsa, ularning atigi 40% i sohaviy terminologiyani (tarixiy, madaniy atamalar) chet tilida to'g'ri tarjima qila olishi kuzatildi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turizmda davlat tili va chet tillari o'rtasida muvozanatni saqlash nafaqat madaniy, balki amaliy-iqtisodiy samara ham beradi. Davlat tilining birinchi o'rinda turishi milliy imidjimizni oshirsa, chet tillarining sifatli qo'llanilishi xizmat sifatini 30-40% ga oshirish imkonini beradi.

MUHOKAMA VA XULOSA : Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, turizm sohasida til masalasini faqat xizmat ko'rsatish tili deb qarash tor fikrlashdir. Til bu yerda ham iqtisodiy, ham mafkuraviy qurol hisoblanadi.Muhokamalarda ko'pincha ikki qarama-qarshi fikr to'qnashadi: birinchisi "sayyohga qulay bo'lishi uchun faqat chet tilida gapirish kerak" desa,

ikkinchisi "faqat davlat tilida xizmat ko'rsatish milliy g'ururdir" deydi. Bizning tadqiqotimiz esa uchinchi, muvozanatli yo'l to'g'ri ekanligini isbotladi.Fransiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular aeroportda ham avvalo fransuz tilida e'lon qilishadi, keyin ingliz tilida. Sayyohlar bundan norozi bo'lmaydi, aksincha Fransiyaga kelganini his qiladi. Bizda ham xuddi shunday bo'lishi kerak. Sayyoh O'zbekistonga o'zbekona muhitni his qilish uchun keladi, Amerikani ko'rish uchun emas. Shu bois turistik joylarda milliy libos, milliy musiqa bilan birga davlat tilidagi yozuvlar ham milliy brendning bir qismiga aylanishi lozim.Boshqa tomondan, gidning davlat tilini bilmasdan turib, chet tilida so'zlashi ham mutlaqo qabul qilinmas holat. Chunki u avvalo o'z tarixini o'z tilida teran anglamasa, uni chet tilida qanday yetkaza oladi?

Turizm obyektlarida "Avvalo davlat tili"tamoyilini qonuniy mustahkamlash va nazoratni kuchaytirish.Turizm sohasi xodimlari uchun davlat tili va chet tillarini bilish bo'yicha maxsus "Til pasporti" tizimini joriy etish.Oliy ta'lim muassasalarida turizm yo'nalishi talabalariga sohaviy chet tili bilan birga, davlat tilida notiqlik va tarixiy obidalarni sharhlash mahoratini o'rgatish.Raqamli platformalarda o'zbek tilidagi kontentni boyitish.Umuman olganda, davlat tilini asrab-avaylash chet tillarini o'rganishga to'sqinlik qilmaydi, aksincha, chet tillarini mukammal bilish davlat tilining jahon miqyosida tanilishiga xizmat qiladi. Ana shu muvozanatni topa olsak, turizmimiz ham, tilimiz ham yutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni (yangi tahriri, 2020-yil).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-yanvardagi "Turizm sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-21-sonli Qarori.
4. Yo'ldoshev J.G'. Turizmda til madaniyati va muloqot asoslari. - Samarqand: SamDU nashri, 2022.
5. Safarov N.S. Xalqaro turizm va madaniyatlararo kommunikatsiya. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.